



## MOLIYA XUJALIK FAOLIYATINI NAZORAT KILISH VA TAFTISH O'TKAZISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Usmonov Shavkatjon Shukurovich**

Jamoat xavfsizligi universiteti,  
"Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrasida magistri  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7359456>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 24<sup>th</sup> November 2022

Online: 25<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Byudjet tashkiloti, ichki nazorat, ichki audit, takomillashtirish, xatarlar, ichki auditor, sifat, baholash, xarajat, daromad, SOSO, COBIT, ITIL.

### ABSTRACT

*Maqolada byudjet tashkilotida ichki nazorat va ichki audit xizmatini samarali tashkil etish yo'llari, ichki auditni tashkil etishning alohida jihatlari, ichki auditni takomillashtirish bosqichlari, tashkilotda ichki nazorat va ichki auditning o'zaro aloqasi, byudjet tashkilotlaridagi ichki audit xizmatini to'g'ri tashkil etilishi bo'yicha yondashuvlar ko'rib chiqilgan.*

O'zbekiston Respublikasida byudjet nazorati Moliya vazirligi tomonidan tartibga solinadi. Byudjet tashkilotlarining faoliyati O'zbekiston respublikasining "Byudjet Kodeksi"ga asosan amalga oshiriladi. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi [1].

Byudjet jarayoni byudjetni rejalashtirishga va byudjet xarajatlarini batafsil byudjet tasnifi yordamida tartibga solishga asoslangan. Byudjet jarayonini amalga oshirish murakkab bo'lganligi sababli byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilishni takomillashtirish zarur. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishning eng

muhim turlaridan biri bo'lgan byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini tekshirish va tashkilotning faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish uchun byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati joriy qilindi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiyotni globallasuvi, integratsion jarayonlar, innovatsion jadallik va kuchli raqobat muhitidagi talablar hisob-kitoblar tizimini ham zamonaviy biznes qoidalariga mos tarzda takomillashtirishni talab etmoqda. Hozirgi kunda byudjet tashkilotlarida xarajatlarni qisqartirish, mablag'lardan samarali va oqilona foydalanish juda muhimdir. Bugungi kunda ishlab chiqilayotgan qonunlar va undan kelib chiqadigan tarkibiy o'zgarishlar hamda byudjet tashkilotlarida ichki audit subyektlarini tashkiliy va uslubiy ta'minlashni rivojlantirish bilan bog'liq nazariy, uslubiy va amaliy masalalarning



umumiyligi ilmiy tadqiqotlar uchun eng qiziq va dolzarbdir.

Ilmiy muammoning qo'yilishi. Shuning uchun, byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki audit faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri yangi loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda ehtimoliy tashqi va ichki risklarni aniqlash va tahlil qilish, shuningdek, risk darajasini pasaytirish yoki yo'qotishlar imkoniyatini minimallashtirishga imkon beruvchi tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Ammo keyingi yillarda byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini samarali tashkil etishda va takomillashtirishda metodologik muammolar yuzaga kelmoqda. Bu, o'z navbatida, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi chegaralari kengayishi jarayonida ko'pgina uslubiy muammolarini hal etishni taqozo etmoqda.

So'nggi ikki yil ichida, ya'ni moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati tashkil qilinganidan buyon ushbu sohaga oid davlatimiz qonunchiligida xalqaro me'yorlar va standartlarni amalga oshirish bilan bog'liq tub o'zgarishlar ro'y bermadi. Ayni damda bu sohaga oid me'yoriy-huquqiy asos tashkil etilmaganligi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Shuningdek, tashkil qilingan ichki audit faoliyatini maqsadi va vazifalari belgilab qo'yildi. Byudjet tashkilotlaridagi moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun davlat organlari va davlat mablag'lari oluvchilarining faoliyatini nazorat qilish hisoblanadi. Xususan, ichki audit xizmati tashkilotning doimiy vazifalarini, yuzaga kelgan noaniqliklarda to'g'ri boshqaruv

qarorlarini qabul qilishni, tashkilot rivojlanishida iqtisodiy potensialini o'zgartirishda, tashkilot ko'rsatkichlari va risklarini harakatini samaradorligini ta'minlaydi. [2]

Ilmiy mohiyati. Bugungi kunda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini, moliyaviy nazorat va ichki audit tizimlarining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish zarurati mavjud. Tizim davlat moliyaviy nazorati organlarining vakolatlari va moliya nazorati sohasidagi muassisning vakolatlarni takrorlashni o'z ichiga oladi. Moliyaviy nazorat va ichki audit moliyaviy boshqaruv tizimining bir qismidir. Ichki audit – ichki auditor tomonidan amalga oshiriladigan, vazirlik, qo'mita va idoralar ichki nazorat tizimining sifati va samaradorligini muntazam ravishda kuzatib borish, baholash va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish orqali vazirlik, qo'mita va idoralar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mustaqil va obyektiv faoliyat.

Tadqiqot metodlari. Maqolada byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini takomillashtirish masalalarini aniqroq tadqiq qilish uchun kuzatish, guruhlash va saralash, taqqoslash, boshqa iqtisodiy tahlil usullari va muallifning shaxsiy kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlardan keng foydalanildi.

Asosiy natijalar. Xalqaro amaliyotga muvofiq, tizimni ijro etuvchi hokimiyat organida quyidagilarga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida ko'rib

chiqish kerak:

- byudjetni tuzish va ijro etishning belgilangan tartibiga rioya etilishi;
- byudjet hisobotini tayyorlash va byudjet hisobini yuritishning belgilangan tartibiga



rioya qilinishi (byudjet hisobotining ishonchligini ta'minlash);

– byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlash va amalga oshirish.

Ko'pchilik davlat moliyaviy nazorati va davlat ichki audit tizimini "maxsus" hisoblangan byudjet vakolati sifatida qabul qiladigan, tartibga soluvchi, Moliya Vazirligi tomonidan haddan tashqari rasmiylashtirilgan byudjet jarayonining ishtirokchilari, uning sifatli bajarilishini ta'minlash uchun xodimlar sonini ko'paytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslaydilar. O'z navbatida, Moliya Vazirligi byudjet tashkilotlari uchun moliyaviy nazorat va ichki audit tizimlarini joriy etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy, uslubiy va tashkiliy hujjatlarni qabul qiladi. Davlat moliyaviy nazorati va byudjet tashkilotlari ichki audit xizmati vakillarining bajaradigan vazifalari bir-biriga o'xshasada, ularning maqsadi va ish uslublari jihatidan farq qiladi. Davlat organlarini moliyaviy boshqarish sifatini baholash davriy rasmiylashtirilgan jarayon bo'lib, u byudjet jarayoni va moliyaviy iqtisodiy faoliyatning barcha elementlarini qamrab oluvchi jarayonlar va protseduralarni har tomonlama baholash va tahlil qilishni ta'minlaydi.

2018-yildan byudjet tashkilotlari ish sifatini baholashni ichki nazorat va ichki audit tizimlarini rivojlantirish bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydigan metodologiyani ishlab chiqishda yangi bosqich boshlandi. Bu bosqichda davlat tashqi va ichki nazorat organlari faoliyati asosan, byudjet tashkilotlarining ichki nazorat tizimini sifatini baholashga va samarali tashkil etilishiga qaratildi. Byudjet

tashkilotlarida ichki audit xizmati davlat moliyaviy nazorati hamda byudjet tashkilotlarining ichki nazorat tizimi bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat olib boradi. Byudjet tashkilotlarida ichki nazorat eng muhim o'rinni egallaydi. O'zaro hamkorlikda ham piramidaning asosini tashkil etadi. Ichki audit xizmati esa ichki nazorat tashkil etilishini ta'minlaydi, faoliyatini kuzatib boradi va samarali tashkil etilishiga yordam beradi. Byudjet tashkilotlarining ichki nazorat tizimi va ichki audit xizmati o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari va ushbu hamkorlik moliyaviy resurslarni boshqarish sifatini oshirish va shaffoflikni yaratish uchun xizmat qilishi lozim.

Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimni takomillashtirish bir necha bosqichda amalga oshirilishi kerak. Birinchi bosqich – bu byudjet xatarlarini boshqarish tizimining elementlarini kiritish. Ichki nazoratni amalga oshirish qoidalarida ichki nazoratning to'g'ri tashkil etilishi uchun amalga oshiriladigan ishlar algoritmlarini shakllantirish zarurligi nazarda tutilgan bo'lib, ular tegishli byudjet tartibidan kelib chiqadigan operatsiyalarni, ularni amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarni, nazorat usullarini va ularni amalga oshirish uchun nazorat tadbirlarini ko'rsatadi.

Bugungi kunga kelib, algoritmgaga kirish uchun operatsiyalarni tanlash va boshqarish harakatlarining tavsiflari bo'yicha aniq mezonlar mavjud emas. Shu munosabat bilan, ko'pchilik ushbu algoritmgaga tegishli rahbarlar va byudjet mablag'lari oluvchilarning mahalliy hujjatlarda oldindan belgilangan ichki byudjet tartibining borishini aks ettiruvchi qo'shimcha hujjat deb bilishadi. Amalga oshiriladigan ishlar algoritmi bir necha



bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich o'z xususiyatiga ega hamda ma'lum vazifalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, amalga oshiriladigan ishlar algoritmda o'z-o'zini boshqarish, boshqarishda qo'llaniladigan usullarini tavsiflash zarurligi to'g'risida, agar tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizom va rahbarlar o'z vakolatlariga kiradigan operatsiyalarning to'g'riligi va o'z vaqtida bajarilishi uchun javobgarlikni belgilab qo'ygan bo'lsalar, amalga oshiriladigan ishlar algoritmiga ko'ra belgilangan nizom va javobgarliklarni tartibga solish zarur. Ya'ni avvaldan belgilangan yo'riqnomalarni yangi qonun-qoidalar asosida o'zgartiradilar.

Nazorat va audit tizimining samarali dizayni, shuningdek normativ-huquqiy bazadagi tegishli o'zgarishlarni shakllantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish masalasini hal qilishda SOSO ichki nazoratining xalqaro konsepsiyasini hisobga olish kerak. Tashkilotning axborot sohasiga nisbatan SOSO qo'mitasining konsepsiyasi COBIT va ITIL kabi bir qator standartlar tomonidan ishlab chiqilgan. ITIL metodologiyasining asosiy qarorlari xizmatlarni boshqarishning individual xalqaro standartlarida mustahkamlangan [3].

Ushbu konsepsiyaning asosi byudjet xatarlarini aniqlash va baholash -

protseduralarini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hodisalar yuzaga kelish ehtimoli va uni amalga oshirish oqibatlari quyidagi sohalarda: ehtimollikni baholashda, ehtimoliy vaziyatni aniqlash uchun ham, tegishli sabablar va sharoitlarni yumshatish choralarini belgilashda ham salbiy hodisani yuzaga kelish shartlari hisobga olinadi. Xavfning ta'sir qilish darajasi ko'rib chiqilayotgan salbiy voqea moliya-byudjet sohasidagi qo'pol buzilishlarga olib keladimi yoki yo'qmi degan savollarga javob topish asosida belgilanadi.

Byudjet ijrosi xavfini baholash natijalariga ko'ra, birinchi navbatda, shakllantiriladigan algoritmgga kiritish uchun xatarli operatsiyalarni va muhim xavflarni o'z vaqtida bostirish uchun zarur bo'lgan nazorat harakatlarining xususiyatini aniqlash kerak. Ushbu yondashuv bilan, ichki byudjet protseduralari bajarilishini ta'minlovchi axborot tizimlaridan foydalangan holda, xatolar to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayd etish va ularni nazorat qilish harakatlarining natijalari jurnalida tuzatish bilan amalga oshiriladigan avtomatik boshqarish harakatlari eng samarali hisoblanadi.

## References:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бюджет Кодекси” (ЎЗР 26.12.2013й. ЎРҚ- 360-сон Қонуни билан тасдиқланган), <https://www.lex.uz>
2. Статъя: А.Гусеев “Положение о внутреннем финансовим контроле” Журнал: “Силловые министерства и ведомства: бухгалтерский учёт и налогообложения» № 1/ 2017 г. [www.taxpravo.ru/analitika/statya](http://www.taxpravo.ru/analitika/statya).
3. Внутренний контроль. Интегрированная модель COSO: Концепция и приложения / Комитет спонсорских организаций комиссии Тридуэя. / Некоммерческое партнёрство «Институт внутренних аудиторов», май 2013. -186 с.



4. "International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing", Institute of Internal Auditors, 2004, page 12 <https://na.theiia.org/standards>.
5. Piotr Bednarek, "Factors Affecting the Internal Audit Effectiveness: A Survey of the Polish Private and Public Sectors", Efficiency in Business and Economics 1-16, 30 December 2017, [https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-319-68285-3\\_1](https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-319-68285-3_1)